

The Issue of Training Medical Personnel in Namangan at the End of the 19th Century

**Karimova Feruza Mutalipovna
Fergana State Technical University**

Annotation. This article analyzes the state of the medical personnel training system in Namangan region in the early 1950s based on archival sources. It examines the level of provision with mid-level medical staff, imbalances in specialties, the composition of teaching staff, the system of professional development, and the material and technical base of educational institutions. The study also highlights the ideological and educational aspects of medical training. The results make it possible to identify key features and challenges of the development of the medical education system during this period.

Keywords: medical personnel, Namangan region, healthcare, feldsher, nurse, midwife, medical education, professional development, teaching staff, material and technical base, Soviet period, ideological education O‘zbek tilida

XIX ASR OXIRDA NAMANGANDA TIBBIY KADRLAR TAYYORLASH MASALSI

**Karimova Feruza Mutalipovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Anotatsiya. Mazkur tesizda 1950-yillar boshida Namangan viloyatida tibbiy kadrlar tayyorlash tizimining holati arxiv materiallari asosida tahlil qilinadi. Unda o‘rta bo‘g‘in tibbiy xodimlar bilan ta‘minlanganlik darajasi, mutaxassisliklar bo‘yicha nomutanosiblik, pedagogik kadrlar tarkibi, malaka oshirish tizimi hamda ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yoritilgan. Shuningdek, tibbiy ta‘lim jarayonining ideologik va ma‘naviy jihatlari ham ochib berilgan. Tadqiqot natijalari

ushbu davrda tibbiy ta'lim tizimining rivojlanish xususiyatlari va muammolarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit soʻzlar: tibbiy kadrlar, Namangan viloyati, sogʻliqni saqlash, feldsher, hamshira, akusher, tibbiy ta'lim, malaka oshirish, pedagogik kadrlar, moddiy-texnik baza, sovet davri, ideologik tarbiya.

Аннотация. В данной статье на основе архивных материалов анализируется состояние системы подготовки медицинских кадров в Наманганской области в начале 1950-х годов. Рассматриваются уровень обеспеченности средним медицинским персоналом, диспропорции по специальностям, состав педагогических кадров, система повышения квалификации, а также материально-техническая база учебных заведений. Кроме того, раскрываются идеологические и воспитательные аспекты медицинского образования. Результаты исследования позволяют определить особенности и проблемы развития системы медицинского образования в рассматриваемый период.

Ключевые слова: медицинские кадры, Наманганская область, здравоохранение, фельдшер, медсестра, акушерка, медицинское образование, повышение квалификации, педагогические кадры, материально-техническая база, советский период, идеологическое воспитание

1950-yillar O'zbekiston, xususan Namangan viloyati uchun sogʻliqni saqlash tizimini shakllantirish va mustahkamlash davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda jamiyat hayotining barcha sohalari kabi tibbiyot tizimi ham tub islohotlar va keng koʻlamli oʻzgarishlar jarayonini boshdan kechirgan. Ayniqsa, aholining son jihatdan oʻsishi, sanitariya-gigiyena muammolarining mavjudligi hamda kasalliklarning oldini olish zarurati tibbiy xizmatni kengaytirish va eng muhimi, malakali kadrlar bilan taʼminlash masalasini dolzarb muammoga aylantirgan.

Mazkur davrda sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi, avvalo, o‘rta bo‘g‘in tibbiy xodimlar — feldsherlar, hamshiralalar va akusherlar faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Chunki aynan ushbu mutaxassislar aholiga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishda asosiy o‘rin tutgan. Shu sababli ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Namangan viloyati misolida bu jarayonni tahlil qilish orqali nafaqat hududiy sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanish darajasini, balki o‘sha davr tibbiy ta‘lim tizimining ichki tuzilmasi, imkoniyatlari va muammolarini ham aniqlash mumkin. Xususan, tibbiy kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasi, mutaxassisliklar bo‘yicha nomutanosiblik, pedagogik kadrlar tarkibi, malaka oshirish tizimi hamda ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi bu borada muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Shuningdek, tibbiy ta‘lim tizimi faqat kasbiy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmagan, balki u o‘sha davr mafkuraviy siyosati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bu esa tibbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida nafaqat kasbiy bilim, balki ma‘naviy-ideologik tarbiya ham muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Namangan viloyati misolida 1950-yillar boshidagi tibbiy kadrlar tayyorlash tizimi o‘zining ijobiy natijalari bilan bir qatorda qator tizimli muammolarni ham o‘zida mujassam etgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, tibbiy ta‘lim tizimini samarali rivojlantirish uchun nafaqat kadrlar sonini oshirish, balki ularning sifatini ta‘minlash, moddiy bazani mustahkamlash va ta‘lim mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tahlillar natijasida olingan xulosalar bugungi kunda tibbiy ta‘lim tizimini rivojlantirishda tarixiy tajribadan oqilona foydalanish, mavjud muammolarni chuqur anglash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimova M. Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistonda tibbiyot tarixi. – Toshkent, 2025.
2. Esonturdiyev S.S., Qarshiboyeva M. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. – Toshkent.
3. O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash tizimi tarixi bo‘yicha statistik to‘plamlar. – Toshkent, 1980–1990.
4. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 6452-ish. 8-varaq.
5. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 7463-ish. 50-varaq.
6. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 7916-ish. 21-varaq.
7. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 6929-ish. 2-varaq.
8. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 6929-ish. 3-varaq.
9. O‘zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiy hujjatlar Milliy Arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 7463-ish. 29-varaq.